

XORIJIY MAMLAKATLAR MOLIYA BOZORIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

N.Qo'chqorov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Q.Majidov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada xalqaro moliya bozori o'zaro bog'langan global bozor sifatida jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiradi. Jahondagi yirik moliya bozorlarida xalqaro kapital harakati ta'minlanadi, iqtisodiyotning ma'lum soha va tarmoqlariga portfel investitsiyalari kiritiladi, turli jamg'armalar investitsiyalarga aylanadi. Yirik fond birjalarning indeksleri jahondagi davlatlar, institutsional investorlar va umumiy bozorning kayfiyatini ko'rsatib turadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Xalqaro moliya bozori o'zaro bog'langan global bozor sifatida jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiradi. Jahondagi yirik moliya bozorlarida xalqaro kapital harakati ta'minlanadi, iqtisodiyotning ma'lum soha va tarmoqlariga portfel investitsiyalari kiritiladi, turli jamg'armalar investitsiyalarga aylanadi. Yirik fond birjalarning indeksleri jahondagi davlatlar, institutsional investorlar va umumiy bozorning kayfiyatini ko'rsatib turadi.

Yirik fond birjalari va birjadan tashqari elektron savdo tizimlari dunyo moliya bozorining asosiy savdo maydonlari hisoblanadi. Yirik fond birjalari va birjadan tashqari elektron savdo tizimlarining aksariyati Jahon birjalar federatsiyasiga (WFE) a'zo tashkilotlar hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon birjalar federatsiyasiga 88 ta birja a'zo bo'lgan.


Jahon birjalar federatsiyasining metodologiyasiga ko'ra mazkur tashkilotga a'zo birjalar 3 ta yirik hududga bo'lib o'rganiladi. Bular Amerika hududi (16 ta a'zo), Osiyo - Tinch okeani hududi (22 ta a'zo), Yevropa - O'rta Sharq - Afrika (50 ta a'zo) hududlari hisobalanadi. Biz quyidagi amalga oshiradigan tahlillarimizda ko'rsatkichlarni Jahon birjalar federatsiyasi, uning hududlari va tashkilotga a'zo bo'lgan fond birjalari misolida keltirib o'tamiz.

Pandemiya sharoitida jahon moliya bozorining holati va rivojlanish tendensiyalari,

mamlakatlarning pandemiya davrida amalga oshirgan iqtisodiy siyosati, qarz majburiyatlarini olinishi, jahon moliya bozori ko'rsatkichlari rivojlanishiga turli omillarning ta'sirini baholash, ularni ekonometrik modellashtirish kabi masalalar bir qator xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan³⁵.

Xorijiy olimlar Bin Wei, Vivian Z. Yue ning tadqiqotlarida COVID-19 pandemiyasi butun dunyoda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarganligi qayd etiladi. Bunga javoban AQSHning Federal zaxira tizimi iqtisodiyotni qo'llab- quvaatlash uchun tez va agressiv harakat qildi. Munitsipal obligatsiyalar bozori, xususan, qisqa muddatli o'zgaruvchan foizli qarz majburiyati (VRDO)ni talabni qondiruvchi vosita sifatida ba'zi dastlabki dallillar taqdim etiladi³⁶.


Jahonda moliya bozoriga oid ko'rstkichlarning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish uchun jahondagi yirik fond birjalar a'zo bo'lgan tashkilot – Jahon birjalar federatsiyasi (WFE)ning veb-saytidagi rasmiy ma'lumotlar va yillik hisobotlardan foydalanamiz. Dastlabki asosiy ko'rsatkich sifatida bozorkapitalizatsiyasini ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Jahon birjalar federatsiya (WFE) va uning mintaqalarining bozor kapitalizatsiyasi, mlrd. AQSH dollarda³⁷

1- rasmdan ko'rinib turibdiki, Jahon birjalar federatsiyasi a'zolarining umumiy bozor kapitalizatsiyasi 2010-2021 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bozor kapitalizatsiyasi qimmatli qog'ozlar bo'yicha amalga oshirilgan savdolarini emas, balki mavjud qimmatli qog'ozlarning bozor bahosini ifodalaydi. Shuning uchun Covid-19 pandemiyasi davrida ham a'zo birjalarning umumiy bozor kapitalizatsiyasi o'sish tendensiyasini ko'rsatgan va 2010-2021 yillar oralig'ida 54954 mlrd. AQSH dollardan 110392 mlrd. AQSH dollargacha o'sgan.

Shuningdek, Amerika, Osiyo - Tinch okeani va Yevropa - O'rta Sharq - Afrika hududlarida ham bozor kapitalizatsiyasi Jahon birjalar federatsiyasiga mos ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunda Amerika hududi kapitalizatsiyasi 2010-2021 yillar oralig'ida 22173 mlrd. AQSH dollardan 49916 mlrd. AQSH dollarga, Osiyo - Tinch okeani hududi kapitalizatsiyasi 15346 mlrd. AQSH dollardan 36153 mlrd. AQSH dollarga, Yevropa - O'rta Sharq - Afrika hududi kapitalizatsiyasi 17435 mlrd. AQSH dollardan 24323 mlrd. AQSH dollargacha oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jahondagi yirik fond birjalarning bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha TOP-10 ligini ko'rib chiqamiz.



2- rasm. Jahonda bozor kapitalizatsiyasi eng yuqori bo‘lgan TOP-10 fond birjalari, foizda³⁸

Yuqoridagi 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2020 yil yakunlari bo‘yicha Jahon birjalar federatsiyasining bozor kapitalizatsiyasi umumiy ulushida Nyu-York fond birjasi (NYSE) jamiga nisbatan 23,8 foiz foiz ko‘rsatkich bilan yaqqol peshqadam bo‘lsa, Nasdaq (Nasdaq-US) birjadan tashqari elektron savdo tizimi jamiga

nisbatan 17,3 foiz ikkinchi o‘rinni egallagan. Nyu-York fond birjasi va Nasdaq elektron savdo tizimini umumiy AQSH fond bozori deb olsak, u holda AQSH jahon fond bozori kapitalizatsiyasining 41,1 foizini tashkil etganligini qayd etish mumkin. Uchinchi o‘rinda esa Shanxay fond birjasi (Shanghai Stock Exchange) jamiga nisbatan 6,3 foiz bilan egallab kelmoqda.

Jahon birjalar federatsiyasining bozor kapitalizatsiyasi umumiy ulushida Nyu-York fond birjasi (NYSE) 23,8 foiz, Nasdaq (Nasdaq-US) birjadan tashqari elektron savdo tizimi 17,3 foizni tashkil etgan. Nyu- York fond birjasi va Nasdaq elektron savdo tizimini umumiy AQSH fond bozori deb olsak, u holda AQSH jahon fond bozori kapitalizatsiyasining 41,1 foizini tashkil etganligini qayd etish mumkin. Bu holat AQSHga moliyaviy instrumentlar orqali jahon moliya bozorlariga o‘zining keng ta’sirini o‘tkazish imkoniyatini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G‘. O‘zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta’sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O‘zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo‘llari. Iqtisodiyot va ta’lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3